

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING INNOVATIVE INITIATIVES IN YOUTH WORLDVIEW

Abdurakhmonov Hasan Ibrohimovich

PhD in Philosophy, Associate Professor

Tashkent Pharmaceutical Institute

E-mail: hasanabdurahmonov1991@mail.ru

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical and methodological foundations of forming innovative initiatives in the worldview of young people. In a context of increasing global competition, the creative thinking of the younger generation, their ability to perceive scientific and technological innovations, and implement them in practice have become key factors in societal development. The research examines the concept of innovative thinking, theories of creativity, digital pedagogy approaches, and scientific views on the socio-psychological development of youth in an integrated manner. It also analyzes pedagogical technologies, project-based learning, the STEAM approach, interactive methods, and the role of the digital environment in the educational process that contribute to the development of innovative initiatives.

Keywords: youth worldview, innovative initiatives, creative thinking, innovative thinking, digital pedagogy, STEAM approach, innovative competence, social environment, state policy, educational technologies.

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Abduraxmonov Xasan Ibroximovich

f.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Toshkent farmatsevtika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda yosh avlodning kreativ fikrlashi, ilmiy-texnik yangiliklarni qabul qilishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda. Tadqiqotda innovatsion tafakkur konsepsiyasi, kreativlik nazariyalari, raqamli pedagogika yondashuvlari va yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga doir ilmiy qarashlar o'zaro uyg'unlikda o'rganilgan. Shuningdek, innovatsion tashabbuslarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida ta'lim, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar va raqamli muhitning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar dunyoqarashi, innovatsion tashabbuslar, kreativ tafakkur, innovatsion fikrlash, raqamli pedagogika, STEAM yondashuvi, innovatsion kompetensiya, ijtimoiy muhit, davlat siyosati, ta'lim texnologiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N32>

Kirish. Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonlari inson faoliyatining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va ijtimoiy faolligi yangicha mazmun kasb etib, innovatsion tashabbuslarni shakllantirish zaruriyati kun tartibidagi eng muhim masalalardan biriga aylandi. Zamonaviy jamiyat rivojida yoshlarning kreativ fikrlashi, muammolarga

noodatiy yondasha olishi, ilmiy yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va ularni hayotga tatbiq etish salohiyati strategik resurs sifatida qaralmoqda.

Innovatsion tafakkur – bu shunchaki yangilik yaratish jarayoni emas, balki shaxsning ilmiy muloqotga tayyorligi, mustaqil qaror qabul qilish madaniyati va kreativ kompetensiyalarining uyg'unlashgan ko'rinishidir. Shu bois, yoshlar orasida innovatsion tashabbuslarni rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogika, balki psixologiya, sotsiologiya, falsafa, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi kabi fanlar kesimida ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, raqamli iqtisodiyot, startap ekotizimlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion ta'lim texnologiyalarining keng joriy etilishi yoshlarning innovatsion dunyoqarashini shakllantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimi oldida yoshlarning kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni ilmiy-texnik yangiliklarga yo'naltirish va innovatsion fikrlash madaniyatini shakllantirish kabi mas'uliyatli vazifalar turibdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, mavjud ilmiy yondashuvlar asosida innovatsion tafakkurni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida innovatsion fikrlashning psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy omillari o'rganilib, innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda ta'lim muassasalari, oilaviy tarbiya va jamiyat institutlarining integratsiyalashgan roli yoritiladi. Shu tariqa, yoshlar innovatsion dunyoqarashini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy raqobatbardoshlik va intellektual salohiyatning kuchayishida hal qiluvchi omil sifatida ilmiy asosda tadqiq etilishi zarur bo'lgan muhim masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirish masalasi global miqyosda jadal rivojlanayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, unga oid tadqiqotlar pedagogika, psixologiya, innovatsiya nazariyasi, ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar bilan kesishgan holda olib borilmoqda. Shuning uchun adabiyotlarda mazkur muammoning turli yondashuvlari va ilmiy konsepsiyalari shakllangan.

J. Shumpeter (1934), P. Druker (1985) kabi innovatika sohasi klassiklari innovatsion tafakkurni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaragan. Shumpeter innovatsion tashabbusni "yangilik yaratish va uni amaliyotga joriy etish jarayoni" deb talqin qilgan, Druker esa kreativ fikrlashni biznes va ijtimoiy tizimlarning o'zgarishida strategik omil sifatida baholagan. Ushbu nazariyalar yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Kreativlik bo'yicha G. Gardnerning "ko'p qirrali intellekt" nazariyasi (1983), E. Torrance (1974)ning kreativ fikrlash testlari, Gilden va Sternberg (2006)ning "ijodiy tafakkur modeli" yoshlar tashabbuskorligini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ular yoshlarning kreativ salohiyatini oshirish uchun muhit, motivatsiya va erkin fikrlash imkoniyatlari muhimligini ta'kidlaydilar.

Raqamli transformatsiya jarayoni yoshlar dunyoqarashini o'zgartirayotgan asosiy omillardan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. M. Prenski (2001) "raqamli avlod" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, zamonaviy yoshlarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va yaratish qarashlari tubdan o'zgarganini aytadi. Raqamli pedagogika bo'yicha Mishra

& Koehlarning TPACK modeli (2006) innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning metodologik asosini ishlab chiqqan.

Xalqaro tadqiqotchilar — Yakman (2010), Bybee (2015) — STEAM yondashuvining yoshlar innovatsion kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rnini yoritib, loyiha asosida o'qitishning ijodiy fikrlashni rag'batlantirishdagi samaradorligini ilmiy isbotlagan. Ularning tadqiqotlarida ko'rsatishicha, loyiha va amaliy faoliyat yoshlarni muammoga yechim topishga yo'naltiruvchi faol o'rgatuvchi muhit yaratadi.

Psixologlar D.Erikson (1968), A.Maslou (1954), L.Vigotskiy (1934)larning tadqiqotlari yoshlarning motivatsiyasi, psixologik ehtiyojlari va ijtimoiy intilishlarini tahlil qilib, innovatsion tashabbuslarning shakllanishi ko'p jihatdan ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq ekanini asoslaydi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi yoshlar uchun qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan A. Nigmatov, R. Qodirov, N. Jo'raev, Z. Quronov — yoshlarni innovatsion tafakkurga tayyorlashda ma'naviy o'zlik, milliy qadriyatlar, raqamli iqtisodiyot va ta'lim siyosatining tutgan o'rnini tahlil qilgan. Ularning ilmiy ishlarida yoshlar ongida ma'naviy immunitet, zamonaviy ko'nikmalar va global raqobatga tayyorgarlikni shakllantirish masalalari markaziy o'rinda turadi.

O'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion tashabbus yoshlarning shaxsiy rivoji, kreativ tafakkuri va motivatsiyasi bilan uzviy bog'liq. Zamonaviy texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish yoshlar dunyoqarashida innovatsion fikrlashni jadallashtiradi. STEAM, loyiha asosida ta'lim, raqamli muhit va interfaol metodlar yoshlarning tashabbuskorligini oshiruvchi asosiy vositalardir. Milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit va davlat siyosati innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilmiy manbalar innovatsion dunyoqarashni shakllantirishning kompleks, ko'p omilli jarayon ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, J. Shumpeter, P. Druker, G. Gardner, E. Torrance, M. Prenski kabi olimlarning nazariyalari innovatsion tafakkurning mohiyatini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning asarlarida ta'kidlanganidek, innovatsion tashabbus shaxsning kreativ salohiyatiga, muammoga noodatiy yondasha bilish qobiliyatiga, analitik fikrlashiga va yangi bilimlarni tezda amaliyotga tatbiq eta olishiga tayangan holda shakllanadi.

STEAM ta'limi, loyiha asosida o'qitish, raqamli pedagogika va interfaol metodlar yoshlarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali vositalar hisoblanadi. Bu yondashuvlar yoshlarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, texnologik fikrlashga, muammolarga kompleks yechim topishga yo'naltiradi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari, axborot makoni va davlat siyosatining integrativ ta'siri yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirish bugungi globallashtirish davrida milliy taraqqiyotning strategik omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlangan natijalar yoshlarning innovatsion fikrlashi nafaqat individual kompetensiya, balki ijtimoiy-madaniy muhit mahsuli ekanini ko'rsatdi. Bunda ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya, axborot makoni, davlat siyosati va yoshlarning psixologik xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Innovatsion tafakkur bir vaqtning o'zida bir nechta jarayon — kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatining sintezi

sifatida shakllanadi. J. Guilfordning intellekt modeli, D. Kolbning tajribaviy ta'lim konsepsiyasi va A. Osterwalderning innovatsion model yaratish nazariyasi yoshlarning yangi g'oyalarni generatsiya qilish mexanizmlarini tushuntirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijada o'quvchilarning motivatsiyasi oshgan, mustaqil izlanish darajasi kuchaygan va muammoli vaziyatlarni yechish tezligi ijobiy sur'atda o'zgargani kuzatildi. Xususan, virtual laboratoriyalar, onlayn ta'lim dasturlari, simulyatsiyalar va gibrid o'qitish usullari yoshlarning analitik va ijodiy tafakkurini kengaytiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tahliliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics) yondashuvi yoshlar tafakkurida tizimli fikrlashni, eksperimentlar orqali yangi g'oyalarni sinab ko'rish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyiha asosida ta'lim esa mas'uliyat, jamoada ishlash, rejalashtirish va dizayn fikrlash kabi innovatsion kompetensiyalarni kuchaytiradi. Bunday jarayonlarda qatnashgan talabalarda kreativ fikrlash darajasi boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli ravishda yuqoriroq bo'lishi aniqlangan.

Yoshlar siyosati, startaplar uchun yaratilayotgan imtiyozlar, inkubatsiya markazlari, texnoparklar, grantlar va stipendiyalar innovatsion tashabbuslarni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan yaratilayotgan innovatsion muhit yoshlar kreativ salohiyatining namoyon bo'lishi uchun strukturaviy asos yaratadi. Lekin ba'zi hududlarda infratuzilma yetishmasligi, loyihalarni moliyalashtirishdagi chegaralar yoshlarning innovatsion faoliyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonning markazida ta'lim, raqamli texnologiyalar, psixologik muhit va davlat siyosati integratsiyasi turadi. Innovatsion fikrlashni rivojlantirish faqat texnik bilimlar orqali emas, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat va kommunikativ madaniyat bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi.

Xulosa. Yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat ta'lim tizimining rivojlanishi, balki mamlakatning intellektual, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot davomida innovatsion tafakkurning shakllanishi ko'p omilli va murakkab pedagogik-psixologik jarayon ekani aniqlandi. Uning samaradorligi raqamli texnologiyalar, kreativ pedagogika, zamonaviy metodlar, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy muhit va davlat siyosati bilan uyg'unlikda ta'minlanadi. Innovatsion fikrlashni shakllantirish jarayonida ma'naviy qadriyatlar, milliy identitet, ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik ham muhim o'rin tutadi. Milliy qadriyatlarga tayanilgan holda global innovatsiyalarni qabul qilish yoshlarning madaniy immunitetini kuchaytiradi, ularni zamonaviy xavf-xatarlar oldida mustahkam pozitsiya egallashga undaydi.

Umuman olganda, yoshlar dunyoqarashida innovatsion tashabbuslarni shakllantirish – zamonaviy ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishi bo'lib, u ilmiy-metodologik asoslangan yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar va ma'naviy tarbiyani uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Ushbu tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish, yoshlar bilan ishlashning yangi

mexanizmlarini yaratish va kelajakda raqobatbardosh, kreativ hamda tashabbuskor avlodni tarbiyalash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Nuraliyev, Z. *Yoshlar va innovatsiya: psixologik yondashuvlar*. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
3. Abdullayeva, G. *Kreativ pedagogika va innovatsion yondashuvlar*. – Samarqand, 2021.
4. Dewey, J. *How We Think*. – New York: D.C. Heath, 1910.
5. Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
6. Guilford, J. P. *The Nature of Human Intelligence*. – New York: McGraw-Hill, 1967.
7. Abdurahmonov H. I. THE PECULIARITIES OF THE FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE YOUTH WORLDVIEW //Форум молодых ученых. – 2020. – №. 8 (48). – С. 3-6.
8. Abdurahmonov H. I. PHILOSOPHICAL AND CATEGORICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF YOUTH OUTLOOK AND INNOVATIVE THINKING //Мировая наука. – 2020. – №. 8 (41). – С. 3-6.
9. Abdurahmonov H. I. ROLE AND IMPORTANCE OF EDUCATIONAL MODELS IN THE FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE WORLD OF YOUTH //Актуальные вопросы современной науки. – 2020. – С. 6-8.
10. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 7. – С. 161-167.
11. Abdurahmonov H. I. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS OF MANIFESTATION //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 8 (62). – С. 3-6.
12. Abdurahmonov H. I. FORMS OF MANIFESTATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE WORLDVIEW OF YOUTH //Экономика и социум. – 2020. – №. 8 (75). – С. 8-11.
13. Ibroximovich A. X. THE DIALECTIC OF TRADITION AND MODERNITY IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH INITIATIVES //SHOKH LIBRARY. – 2025.
14. Абдурахмонов Х. И. ҲОЗИРГИ ДАВРДА ЁШЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИ //Tafakkur manzili. – 2023. – Т. 4. – С. 23-29.
15. АБДУРАХМАНОВ Х. А. ОБНОВЛЕНИЕ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА: НЕКОТОРЫЕ ИТОГИ ИХ ОЦЕНКА //Закон. – 2016. – №. 6. – С. 166-171.
16. Ibrohimovich A. H. Modern Factors for Raising Student-youth Innovative Thinking in the Higher Education //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Т. 15. – С. 202-206.
17. Abdurahmonov K. H. Chelovecheskij progress //Т.: Jekonomika. – 2012.
18. Абдурахмонов Х. И. ОЛИМЛАР АЁЛЛАР ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 15. – С. 125-128.
19. Ibroximovich A. X. BILISH JARAYONINING TEXNOGEN TARAQQIYOT BILAN BOG'LIQLIGI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – С. 19-24.
20. Абдурахмонов Х. И. Развитие общества и инновационное мышление //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 100-102.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).